

**TARIX FANINI O'QITISHDA TA'LIM VA TARBIYANING UZVIYLIGI**

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti*

*Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

***Akmaljonov Akbarjon Akmaljon o'g'li***

*Akmaljonovakbarjon2001@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix fanini o'qitishdagi maqsad, avvalo ta'lim va tarbiyaning uzviy birligi ekanligini va fanni o'qitish davomida o'quvchilarni g'oyaviy, mafkuraviy saviyasini doimiy o'sib borishini ta'minlash, yoshlarga boy tariximizdan puxta bilim berish, ularni mustaqil Vatanimizga sadoqat ruhida tarbiyalash, o'quvchilarga tarix o'qitish metodikasi nazariyasini chuqur o'rgatish, hamda metodikani o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari, maqsadi, mazmuni, o'qitish uslublari, natijalari o'rtasidagi bog'lanishlarni asoslab berish haqida keng fikr va mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, tarbiya, tarix, vatanparvarlik, bilim, g'oya, mafkura, metodika

**Аннотация:** В данной статье целью преподавания истории является, прежде всего, органическое единство образования и воспитания, а при преподавании естественных наук обеспечить непрерывный рост идейно-идеологического уровня учащихся, дать молодым людям глубокие знания. нашей богатой истории, воспитывать их в духе верности нашей независимой Родине, углубленно преподавать студентам теорию методики преподавания истории, обосновывать связи между компонентами, целью, содержанием, методами обучения, результатами. Методике преподавания процесса высказан широкий спектр мнений и мнений.

**Ключевые слова:** Образование, воспитание, история, патриотизм, знание, идея, идеология, методология.

**Annotation:** In this article, the goal of teaching history is first of all an organic unity of education and upbringing, and during the teaching of science, to ensure the continuous growth of students' ideological and ideological level, to provide young people with thorough knowledge of our rich history. , to educate them in the spirit of loyalty to our

independent Motherland, to teach students in depth the theory of history teaching methodology, and to substantiate the connections between the components, purpose, content, teaching methods, results of the methodology teaching process wide range of opinions and opinions are expressed.

**Key words:** Education, education, history, patriotism, knowledge, idea, ideology, methodology

## **KIRISH**

Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi yoki o'quvchilar o'rtasida o'zaro jonli til muloqoti, fikr almashuv munosabatlari, samimiy hurmat va asosiy maqsadga erishishda yaqin hamkorlik lozim. Mazmuni sayoz, amaliy tajribadan, turmushdan ajralib qolgan, umumiy so'z va quruq nasihatgo'ylikdan iborat bo'lgan, rasmiyat uchun yuzaki o'tkaziladigan dars (ma'ruza) va boshqa o'quv mashg'ulotlari o'quvchilarni qiziqtirmaydi, ularni ilmiy, g'oyaviy jihatdan yetarli oziqlantirmaydi. Shu sababli, o'quv mashg'ulotlarini shunday tashkil qilish kerakki, ularning ta'sirida o'quvchilarda shu fanga nisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va e'tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi kerak. Ta'lim va tarbiya jarayoni ta'sirchanligining yanada yuksak bo'lishi o'qituvchining ilmiy salohiyatiga, yoshlar oldidagi obro'siga, shaxsiy sifatlariga, ilmiy iste'dodiga, ta'lim sohasidagi tajriba va mahorati hamda o'quvchi yoki o'quvchilar bilan o'rnatilgan do'stona munosabatiga bog'liqdir. Zamon talablari professor-o'qituvchilarning o'zlarida mavjud bo'lgan bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy mamlakatlar tajribasini qunt va sabot bilan o'rganib, mag'zini chaqib, undan keyin o'z o'quvchilariga saboq berishlari zarurligini taqozo etadi. Pedagogik faoliyat samarasi o'qituvchining pedagogik qobiliyati qay darajada shakllanganligiga ham bog'liqdir. Qobiliyat - faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi, deb ta'kidlanadi. Jumladan, bilish qobiliyati, tushuntira olish qobiliyati, nutq qobiliyati, obro' orttira olish qobiliyati, muomala qila bilish qobiliyati kabilar.

## **MATERIALLAR VA USULLAR**

Pedagogik qobiliyat va mahorat o'qituvchida osonlik bilan shakllanmaydi. Bu kasbni tanlagan kishi o'z maqsadiga erishish uchun uzluksiz o'qishi, o'rganishi va

izlanishi, ijodiy mehnat qilishi, o‘z yurti va dunyodagi real voqelikni tez anglashi va o‘z mehnatining mamlakat uchun qanchalik zarurligini chuqur his qilishi zarur. O‘qituvchining pedagogik mahorati haqida fikr yuritar ekanmiz, uning ongligiga, milliy g‘oya va mafkuraga sodiqligiga, bilish va fikr doiralarining kengligiga, o‘z vazifasiga munosabatiga e‘tibor bermoq kerak. Ayniqsa, pedagogik mahorat bobida o‘qituvchining fikr doirasi keng bo‘lish zarurligini alohida hisobga olish lozim. Chunki kishida bilim va fikr mukammal bo‘lmasa, u kamolotga erisha olmaydi. Darhaqiqat, kishi u yoki bu masalani, albatta fikr orqali hal etadi. Shuning uchun, pedagogik mahorat sohibi bo‘lishga intilgan kishi, shubhasiz, o‘z bilimini doimo kengaytirishi, o‘zining o‘quvchi yoki o‘quvchiga ma‘naviy-axloqiy ta‘sir etuvchi g‘oya va fikrlarini yangilab borishi zarur. Buning uchun u ko‘p o‘qishi va o‘rganishi lozim. O‘qituvchining pedagogik mahoratiga baho berishda uning ta‘limni qay darajada tashkil qila bilishi muhim ahamiyatga egadir. Uzluksiz ta‘lim tizimida dars va boshqa turdagi barcha o‘quv mashg‘ulotlarini mukammal tashkil qilish - o‘qituvchining birinchi navbatdagi vazifasidir. Yuqori saviyada o‘tkazilgan mashg‘ulotlar yoshlar ongida uzoq saqlanadi, ularda iymon-e‘tiqod va mafkuraning shakllanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, o‘qituvchining ilmiy saviyasi uning o‘z burchiga munosabati, yoshlarga murabbiylik ishtiyoqi, pedagogik mahorati va, eng avvalo, sifatli dars bera olishida ko‘rinadi. Fan o‘qituvchisining faoliyatiga beriladigan baho darajasini ham dars va boshqa turdagi mashg‘ulotlarning sifati belgilaydi. Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur‘atlarda jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Ta‘lim-tarbiya jarayoniga umumta‘lim fanlarini o‘qitishning prinsipial yangi metodologiyasi sifatida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘limni joriy etish siyosiy, umumdavlat va didaktik ahamiyatga ega bo‘lgan hodisa hisoblanadi. Mazkur jarayonda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta‘kidlaganidek, uzluksiz ta‘limni davlat ta‘lim standartlari va tegishli ta‘lim dasturlari bilan ta‘minlashda, avvalo, ularning jahon talablari darajasida bo‘lishiga, yuksak ma‘naviyat zaminida qurilganiga asosiy e‘tibor berish kerak. Albatta, eng avvalo, ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligi bugungi kun talabi, jamiyat ehtiyoji, fan va texnikaning rivojlanish tendensiyalari asosida ishlab chiqilgan davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlariga bog‘liq. XXI asrda dunyoning

rivojlangan davlatlarida ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

## **NATIJALAR**

Shuni alohida qayd etish lozimki, hozirgi vaqtda inson bilan uni o'rab turgan muhitning tuzilishi va xususiyatlarini, shuningdek, ekologik omilning inson jismoniy va ruhiy holatiga ta'sir kuchini tadqiq etadigan sotsial ekologiyaning mohiyati tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Sotsial ekologiya quyidagi asosiy qoidalarga asoslanadi: “Tabiat – Jamiyat – Inson” yagona bir butunlikni tashkil etadi; inson tabiatning bir qismi, uning rivojlanishi, tabiatni o'zgartirish inson hayotining asosini tashkil etadi. Tabiat tarixi bilan jamiyat tarixining birligi mehnat jarayonida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy qonunlarga nisbatan tabiat qonunlari birlamchidir, yangi ekologik madaniyatning rivojlanishi shaxsning tabiatga nisbatan yuqori darajadagi mas'uliyatini ifodalaydi. Tabiatga yangicha madaniy munosabatning shakllanishi to'la mazmundagi gumanizm g'oyalarini o'zida mujassamlashtiradi. Tabiat qonunlarini oyoqosti qilish, faqat yaqin foydaga intilish, xalq mablag'larini sarflashda isrofgarchilikka yo'l qo'yish, shuningdek, tabiatga o'z shaxsiy talabi nuqtai nazaridangina yondashish gumanizmga qanchalik zid bo'lsa, tabiatga nisbatan ham shunchalik ziddir. Sotsial ekologiyaning insonparvarligi ayniqsa pedagogika faniga yaqindir. Maktab va xalq ta'limining hamma yo'nalishi yangi avlodni ilgaridan an'anaga kirgan go'ya – “tabiat in'omidan to'la foydalanish kerak, biz tabiatdan xayr-ehson kutib o'tirmaymiz, uni o'zimizga bo'ysundiramiz” kabi konsepsiyalari bilan aloqasini batamom, uzil-kesil uzib tashlab, uni himoya qilish va uning in'omlaridan avaylab, unga zarar yetkazmasdan foydalanishni taqozo etadi. Maktab yosh avlodda tabiatga nisbatan doimo g'amxo'rlik qilish, uning in'omlarini ardoqlab saqlash kabi madaniy hislatlarni tarbiyalab kamolga yetkazmog'i kerak. Ekologik madaniyat o'quvchi-yoshlarimiz ijtimoiy faolliklarining ifodasi, mustaqil O'zbekistonimiz tabiiy boyliklarini ko'z qorachigimizdek saqlash va ko'paytirish borasidagi vatanparvarlik harakatlarining sarchashmasi bo'lmog'i darkor.

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida aytib o'tishimiz kerakki uzluksiz ta'lim tizimlarida tarix ta'limining asosiy maqsadi - O'zbekiston va jahon tarixining eng qadimgi davrdan bugungi kungacha bo'lgan eng muhim voqealar bilan o'quvchilarni tanishtirish, ularni dunyo xalqlarining madaniy va ma'naviy merosiga, an'alariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, buyuk ajdodlarimiz merosining davomchilari bo'lishga munosib avlod qilib o'stirishdan iboratdir. Tarix fanini o'qitish orqali yosh avlodni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash va ta'lim tizimida o'qitiladigan tarix kurslarining maqsadini, vazifalarini, tushunib berish tizimni yo'lga qo'yib tarix fanini o'qitish orqali ta'lim va tarbiyaning uzviliyigini taminlashdan iborat.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Cho'lpon. 2005.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.
3. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi. 2004.
4. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari /O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.
5. Toshpulatov T., Gafforov Ya.X. Tarix o'qitish metodikasi. (Darslik) – T.: "Turon - iqbol" nashriyoti, 2010.
6. Nafasov A.K. Tarix fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalar. – T.: "Olam" nashriyoti, 2011.